

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Moskva, 1996.
2. Kunin A.V. Kurs frazeologii. Moskva, 1996.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. Moskva, 2001.
4. Stepanov Yu.S. Konstanty. Moskva, 2004.
5. Burger H. Phraseologie. Berlin, 2010.
6. Humboldt W. von. On Language. Cambridge, 1988.
7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford, 1997.
8. Sapir E. Language. New York, 1921.
9. Whorf B.L. Language, Thought and Reality. Cambridge, 1956.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent, 1992.

Yunusova Xilola Ravshan qizi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti Orcid: 0009-0004-0567-5127 e-mail: yunusova.hilola1992@gmail.com

Qobiljonova Xushnozabonu Oybek qizi, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi, Farg'ona davlat universiteti



MUHAMMAD SIDDIQ SHE'RIYATIDA METAFORALARNING BADIY VAZIFASI

<https://zenodo.org/records/18729083>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ijodkor Muhammad Siddiq she'riyatida metaforalarning qo'llanilishi va ularning poetik-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Shoirning ayrim she'riy parchalarida metaforaning oddiy ko'rinishlari, personifikatsiya hamda obrazli-ko'chma ma'no hosil qilish usullari ilmiy jihatdan sharhlanadi. Shuningdek, metafora haqidagi nazariy qarashlar – Aristotel, I.A. Richards, M. Blek hamda J. Lakoff va M. Jonsonning ilmiy yondashuvlari asosida metaforaning tafakkur va badiiy ijoddagi o'rni yoritiladi. Tahlil jarayonida metaforaning ijodiy tafakkur mahsuli sifatidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar va iboralar: metafora, ko'chma ma'no, personifikatsiya, poetik obraz, ramziy ifoda, badiiy tafakkur, individual uslub, konseptual metafora

THE ARTISTIC FUNCTION OF METAPHORS IN THE POETRY OF MUHAMMAD SIDDIQ

Abstract: This article analyzes the use of metaphors and their poetic-aesthetic function in the poetry of the contemporary author Muhammad Siddiq. Based on selected poetic excerpts, simple forms of metaphor, personification, and the formation of figurative-transferred meaning are examined from a scientific perspective. The study also highlights theoretical approaches to metaphor proposed by Aristotle, I. A. Richards, M. Black, and G. Lakoff and M. Johnson, thereby clarifying the role of metaphor in

cognition and literary creativity. The analysis reveals the significance of metaphor as a product of creative thinking.

Keywords and phrases: metaphor, figurative meaning, personification, poetic image, symbolic expression, artistic thinking, individual style, conceptual metaphor

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ МЕТАФОР В ПОЭЗИИ МУХАММАДА СИДДИКА

Аннотация: В данной статье анализируется использование метафор и их поэтико-эстетическая функция в поэзии современного автора Мухаммади Сиддика. На основе отдельных поэтических фрагментов рассматриваются простые формы метафоры, персонификация, а также способы создания образно-переносного значения. Кроме того, освещаются теоретические взгляды на метафору, представленные Аристотелем, И. А. Ричардсом, М. Блэком, Дж. Лакоффом и М. Джонсоном, что позволяет раскрыть роль метафоры в мышлении и художественном творчестве. В процессе анализа определяется значение метафоры как результата творческого мышления.

Ключевые слова и выражения: метафора, переносное значение, персонификация, поэтический образ, символическое выражение, художественное мышление, индивидуальный стиль, концептуальная метафора

Kirish

Badiiy matnning estetik ta'sirchanligi, avvalo, undagi obrazlilik, ma'no qatlamlarining ko'p qirrali tuzilishi hamda til vositalarining mahorat bilan qo'llanishiga bog'liq. Tilning bunday obrazli imkoniyatlari orasida metafora alohida o'rin tutadi. Metafora (yunoncha metaphora – "ko'chirish") ma'no ko'chishining keng tarqalgan turi bo'lib, bir predmet yoki hodisaga xos belgi asosida boshqa predmet yoki hodisaga nisbatan qo'llanadi. U nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki tafakkur jarayonining muhim mexanizmi ham hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Muhammadi Siddiq she'riyatida metaforalarning poetik-estetik funksiyasi maxsus lingvopoetik yondashuv asosida tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Tadqiqotning maqsadi – shoir she'riyatida qo'llanilgan metaforalarni aniqlash, ularning semantik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda poetik vazifasini belgilashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- metafora haqidagi nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- shoir she'rlarida uchraydigan metaforik birliklarni aniqlash;
- ularning obrazlilik va ma'no yaratishdagi rolini ochib berish;
- metaforalarning individual uslub shakllanishidagi ahamiyatini belgilash.

Shu asosda maqolada metaforaning nafaqat tasviriy vosita, balki shoirning badiiy tafakkurini ifodalovchi muhim estetik mexanizm ekani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Metafora qadimdan adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim obyekti bo'lib kelgan. Aristotel "Poetika" asarida metaforani "bir narsaning nomini boshqa narsaga ko'chirish" deb ta'riflaydi va uni shoirning iste'dod belgisi sifatida baholaydi [1]. Uning fikricha, metafora yaratish qobiliyati ijodkorning tafakkur teranligidan dalolat beradi.

XX asr tilshunosligida metafora talqini yanada chuqurlashdi. I.A. Richards metaforani ikki komponent – *tenor* (asosiy ma'no) va *vehicle* (ko'chiriluvchi obraz) o'zaro ta'siri sifatida izohlaydi [4]. M.Blek esa metaforani interaksion model asosida

tushuntirib, metafora ikki tushuncha o'rtasidagi faol semantik o'zaro ta'sir mahsuli ekanini ta'kidlaydi [2].

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik vakillari J. Lakoff va M. Jonson "Metaphors We Live By" asarida metaforani nafaqat uslubiy vosita, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, inson abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglaydi va bu jarayon konseptual metafora orqali amalga oshadi [3].

Shu bois metafora she'riyatda nafaqat bezak, balki ma'no yaratish va fikrni chuqurlashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijodkor Muhammad Siddiq she'riyatida ham metaforalar ruhiy-estetik vazifa bajaradi va shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etadi.

Natija va muhokama.

Quyida shoirning she'riyatidan na'munalar tahlilga tortilib, muhokama qilinadi:

1. Personifikatsiya asosidagi metaforalar

Shoir quyidagi satrlarda jonsiz predmetlarga insoniy sifat yuklaydi:

Kechir meni, ey sho'x gitaram,

Kechiringiz, mahzun she'rlarim!

Bu yerda "sho'x" va "mahzun" sifatlari insonga xos ruhiy holatni bildiradi. Biroq gitaraning "sho'x", she'rlarning "mahzun" sifatida tasvirlanishi jonlantirish (personifikatsiya) orqali amalga oshirilgan metaforik ifodadir.

Aristotel ta'kidlaganidek, metafora orqali predmetga yangi ma'no yuklanadi. Bu yerda ijod quroli va ijod mahsuli tirik mavjudot darajasiga ko'tariladi. Natijada shoir va ijod o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik kuchayadi.

Keyingi misralarda ham shunday jarayon kuzatiladi:

Asov so'zlar, keching bahrimdan,

Musiqalar, parchalang meni!

"So'zlarning kechishi", "musiqalarning parchalashi" kabi harakatlar inson faoliyatiga xosdir. Bu metaforalar orqali shoir ijod jarayonidagi ichki iztirobni obrazli tarzda ifodalaydi. M. Blekning interaksion nazariyasiga ko'ra, bu yerda ikki semantik maydon – "inson harakati" va "abstrakt tushuncha" o'zaro ta'sirga kirishadi va yangi badiiy ma'no yuzaga keladi.

2. Ruhiy kechinmalarni ifodalovchi metaforalar

Quyidagi satrlarda shoir ichki dunyosini metaforik obrazlar orqali ochib beradi:

Yuragim shivirlar – uyqu oldidan

Necha harf ummoni xayolotimda

Mavjlanib, jaranglab uchadir qushday!

"Yurakning shivirlashi" ichki ovoznining ramziy ifodasidir. Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, bu yerda "EMOSIYA – TIRIK MAVJUDOT" konseptual modeli ishlaydi.

"Harf ummoni" metaforasi tafakkur kengligini bildiradi. Ummon – cheksizlik timsoli. Harflarning "qushday uchishi" esa fikr va ilhomning erkinligini anglatadi.

Bu yerda metafora nafaqat ko'chma ma'no hosil qiladi, balki tasviriylik va ritmik ohangni ham ta'minlaydi.

3. Abstrakt tushunchalarning metaforik talqini

Shoirning quyidagi satrlari abstrakt tushunchalarni jonlantirish asosida qurilgan:

Qalbim va dunyoning og'ir bahsida

Yana g'olib bo'lar mendagi tug'yon!

Bu yerda “qalb” va “dunyo” bahslashayotgan tomonlar sifatida tasvirlanadi. Aslida bahslashish inson faoliyatidir. Richards ta’riflagan *tenor* va *vehicle* o’rtasidagi o’zaro ta’sir orqali ichki va tashqi olam o’rtasidagi ziddiyat badiiy shakl oladi.

Yana bir misol:

Mevalar g’arq pishgan dil daraxtimdan

Uzib, tutgim kellar har tilla harfni!

“Dil daraxti” – qalbni daraxtga qiyoslash asosida yaratilgan metaforadir. Daraxt – hosil beruvchi manba. Bu yerda qalb ijod manbai sifatida talqin qilinadi.

“Tilla harf” esa so’zning qadr-qimmatini bildiradi. Bu metafora ramziy xarakterga ega bo’lib, shoirning individual uslubini namoyon etadi.

Xulosa.

Muhammad Siddiq she’riyatida metaforalar nafaqat tasviriy vosita, balki ruhiy-falsafiy mazmunni ochib beruvchi asosiy poetik mexanizmdir. Shoir jonsiz predmetlarni jonlantirish, abstrakt tushunchalarni obrazlashtirish hamda ichki kechinmalarni ramziy ifodalash orqali o’ziga xos badiiy olam yaratadi.

Aristotel metaforani shoir iste’dodining belgisi sifatida baholagan bo’lsa, Lakoff va Jonson uni inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida talqin etadilar. Muhammad Siddiq ijodida metafora aynan shu ikki jihatni – estetik bezak va konseptual tafakkur mexanizmini birlashtiradi.

Shoir metaforalari individual uslub belgisi sifatida namoyon bo’lib, zamonaviy o’zbek she’riyatida yangicha poetik tafakkur shakllanayotganini ko’rsatadi. Metafora uning ijodida fikrni chuqurlashtirish, tasvirni jonlantirish va o’quvchini ruhiy jarayonga olib kirish vositasi sifatida muhim badiiy vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Aristotel. (2008). *Poetika* (A. Mahkam tarj.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Black, M. (1962). *Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy*. Ithaca: Cornell University Press.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Richards, I. A. (1936). *The Philosophy of Rhetoric*. Oxford: Oxford University Press.

Dushatova Shoxsanam Baxtiyor qizi, Farg’ona davlat universiteti, ingliz tili o’qituvchisi

sh.dushatova@pf.fdu.uz ORCID ID 0000-0002-4755-4735



**CHET TILINI O’QITISHDA EVFEMIZMLARNING KOGNITIV TABIATINI
TUSHUNISH MUAMMOLARI**

<https://zenodo.org/records/18729091>